



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 26-noyabr, № 247 (9142)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



SAMARQAND AHOI VA TADBIRKORLAR, TURISTLAR VA INVESTORLAR UCHUN JOZIBADOR HUDUDGA AYLANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-noyabr kuni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanishish hamda kelgusidagi vazifalarni faollar ishtirokida belgilab olish uchun Samarqand viloyatiga tashrif buyurdi.



Davlatimiz rahbari Samarqandga tashrifini taomilga ko'ra, Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qilish bilan boshladi. Qur'on tilovat etilib, duo o'qildi.

Prezidentimizning tashabbusi bilan mazkur majmua buyuk muhaddis bobomizning islom olamida tutgan yuksak mavqei, ulkan salohiyatiga munosib tarzda qaytadan bunyod etildi. Umumiy maydoni 45 gektarni tashkil etadigan hududda ulkan maqbara, 10 ming kishilik masjid va ma'muriyat binosi, muzey, kirish va chiqish ayvonlari qurildi. Ziyoratgohning 4 burchagidagi 75 metrik minoralar unga mahobat bag'ishlagan.

Bu joy faqat ziyorat emas, ilm-ma'rifat, tarbiya va ibrat maskani bo'lishi, Imom Buxoriyning buyuk izlanishlari, bilimi hamda kamoloti ziyoratchilar, ayniqsa, yoshlar uchun ezgu namuna bo'lishi kerakligi e'tiborga olinib, majmuada innovatsion muzey tashkil etildi. U islom olamida muhaddislar sultoni deya e'tirof etilgan Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi, islom ma'rifati rivojiga qo'shgan hissasini namoyon etadi.

Majmua avval bir kunda 12 ming ziyoratchiga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, hozir 65 ming nafar mehmonga xalqaro standartlarga mos xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratilgan.

Bundan tashqari, hududda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

va Hadis ilmi maktabi joylashgan.

Ziyoratgoh atrofida 570 milliard so'm mablag' sarflanib, mehmonxonalar va savdo-servis nuqtalari tashkil etildi. Bunda 1 ta to'rt yulduzli, 2 ta uch yulduzli mehmonxonalar hamda 22 ta oilaviy mehmon uyi qurilgan. Mazkur obyektlar to'liq kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlanib, hududi obodonlashtirilgan. 2026-yilga qadar hududda ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish hamda avtoturargohlarni tashkil etish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari Imom Buxoriy ziyoratgohi xalqimizning boy ma'naviy merosi va bunyodkorlik salohiyatining yorqin namunasi bo'lganini ta'kidlab, majmuada ayni paytda olib borilayotgan so'nggi obodonlashtirish ishlarini sifatli va o'z vaqtida bajarish yuzasidan mas'ullarga topshiriqlar berdi.

Prezidentimiz Oqdaryo tumani Dahbed shaharchasida joylashgan Mahdumi A'zam majmuasida amalga oshirilayotgan rekonstruksiya ishlari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari shu yilning mart oyida viloyatga tashrifi chog'ida Mahdumi A'zam qadamjosini obod qilishga oid loyiha bilan tanishgan edi.

Asli hozirgi Kosonsoy tumanida tug'ilgan so'fiy olim naqshbandiya ta'limotining rahnamolaridan biri bo'lgan. Yoshlik chog'larida

Farg'onadagi madrasada savod chiqarib, Samarqandda Xoja Ahror Valiyning shogirdi mavlono Muhammad Qoziy qo'lida pirlik darajasiga yetishadi. Keyinchalik o'zi tariqat ilmigga doir 30 dan ziyod asarlar yozgan, ko'plab shogirdlar yetishtirgan.

Bu zotga ilm yo'lidagi xizmatlari uchun Mahdumi A'zam unvoni beriladi. Ilm va din yo'lidagi uzoq safardan so'ng Samarqandda abadiy qo'nim topgan.

Samarqand hukmdori bo'lgan Yalangto'sh Bahodir Mahdumi A'zam qabri ustida daxma qurdirgan hamda bu yerda yirik masjid, ilm toliblari uchun madrasa barpo qilgan. U vafot etganidan so'ng o'z vasiyatiga ko'ra, shu yerda dafn etilgan. Umuman, ziyoratgohda 50 dan ziyod qabrtoshlar saqlangan bo'lib, aksariyati kimning sharafiga qo'yilgani aniqlangan. Bu yerda ko'plab allomalar qatorida ikki nafar Afg'oniston hukmdori (Shoh Hidoyat ibn Shoh Qosim (1668-yil), Shoh Saodat ibn Shoh Hidoyat) ham dafn etilgan.

Alloma mangu qo'nim topgan ziyoratgohda loyiha doirasida keng ko'lamli rekonstruksiya ishlari amalga oshirilmoqda.

Mahdumi A'zam ziyoratgohining umumiy maydoni qariyb 5 gektarni tashkil etadi. Bu maskanga keluvchi ziyoratchilar ham ko'p. Ularga sharoitlarni yaxshilash maqsadida

Mahdumi A'zam maqbarasi yonida uch qavatli zamonaviy avtoturargoh, kirish darvozasi, kushxona va ma'muriy binolar, tahoratxona, ming kishilik masjid va qo'shimcha ayvonlar qurilmoqda.

Ta'mirlash ishlaridan so'ng bir vaqtning o'zida 35 ming ziyoratchini qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Avvallari 5 ming ziyoratchi qabul qilingan.

Shuningdek, hududda ziyoratchilarga qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida obodonlashtirish ishlari olib borilib, 40 dan ortiq savdo va servis obyektlari tashkil etiladi.

Alloma yodga olinib, Qur'on tilovat qilindi. Prezident ziyoratgohda daraxt ekdi.

Ziyoratgohni yanada obodonlashtirish, bog'da ko'p yillik daraxt ko'chatlari o'tqazib, tashrif buyuruvchilar uchun qulayliklar yaratish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari Samarqand shahridagi Hazrati Xizr majmuasida ham bo'lib, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov maqbarasiga gul qo'ydi.

Qur'on oyatlari tilovat etilib, duo o'qildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand – Urgut yangi temir yo'l liniyasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Ushbu temir yo'l qurilishi joriy yil fevral oyida boshlangan bo'lib, umumiy uzunligi 55 kilometrni tashkil etadi. Loyiha doirasida ikkita vokzal, "Urgut" erkin iqtisodiy zonasida ikkita yuk stansiyasi hamda bir qator ko'priklar barpo etildi. E'tiborlisi, mazkur liniyani kelgusida to'liq elektrlashtirish rejalashtirilgan.

Yangi yo'nalish ikki juft shaharlararo poyezd va to'qqiz juft yul poyezdi qatnovini ta'minlash imkoniyatiga ega. Loyihani shu yil oxiriga qadar yakunlash ko'zda tutilgan. Poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yilishi orqali yiliga 359 ming yo'lovchi va 8,2 million tonna yuk tashish imkoniyati yaratiladi.

Yo'nalish Samarqand shahri, Toyloq va Urgut tumanlari aholisi uchun xavfsiz va zamonaviy transport xizmati taqdim etishi bilan ahamiyatli. Shuningdek, ichki turizm rivojiga ham katta turkib beradi.

Temir yo'l infratuzilmasi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, ushbu loyiha "Urgut" erkin iqtisodiy zonasi salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Yangi yo'nalish ishga tushishi natijasida 130 ta yangi ish o'zni yaratiladi.

Davlatimiz rahbari jamoatchilik

vakillari bilan birga mazkur yo'nalishda harakatlanuvchi poyezdda Urgutga bordi.

Safar chog'ida Prezidentimiz temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirish, yo'lovchilar uchun qulayliklarni yanada oshirish, temir yo'llarni elektrlashtirish va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish yuzasidan mutasaddilarga qo'shimcha topshiriqlar berdi. Shuningdek, yo'l bo'ylab amalga oshirilayotgan qurilish va obodonchilik ishlariga e'tibor qaratdi.

Urgut tumani katta salohiyatga ega hudud sifatida tobora muhim o'rinni egallab borayotgani ta'kidlandi. Bu yerdagi aholi ishlabirmon, tadbirkorlik ruhi kuchli. Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan bunday hududlarni rivojlantirishda esa zamonaviy logistika va infratuzilma hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Yangi temir yo'lning kelishi bilan Urgutda iqtisodiy o'sishni cheklab turgan to'siqlar, logistik "tromb"lar bartaraf etiladi. Yuk tashish tezlashadi, mahsulotlar bozorlarga arzon va vaqtda yetkaziladi, investorlar uchun qulayliklar yanada ortib, hududning raqobatbardoshligi oshadi.

Eng muhimi, hududda yaratilayotgan yangi imkoniyatlar aholining turmush darajasiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Infratuzilma rivojlangan joyda ish o'rinlari ko'payadi, xizmatlar yaxshilanadi, tadbirkorlik faollashadi.

Ta'kidlanishicha, mazkur loyiha temir yo'l tarmog'ini modernizatsiya qilish va kengaytirishga qaratilgan ishlarning muhim qismi hisoblanadi. Bu jarayonda ishlarni o'z vaqtida va yuqori sifatda amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda xarajatlarni optimallashtirish zarurligi aytiladi.

Safar chog'idagi suhbatda davlatimiz rahbari Samarqandda bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlarning odamlar hayotidagi ijobiy aksi ko'zga yaqqol tashlanayotgani, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, Yangi O'zbekistonning bunyodkorlari sifatida tarbiyalash haqida so'z yuritdi. Urgutgacha tortilgan temir yo'lga tutash yerlarni o'zlashtirish, ularda qishloq xo'jaligi madaniyatini yuksaltirish, ta'lim sohasida, shu jumladan, qo'shni davlatlar bilan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarurligi ta'kidlandi.

Urgut vokzali yangi yo'nalishning asosiy nuqtalaridan biri. Prezidentimiz vokzal infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish tizimi va yo'lovchilar harakatini tashkil

etish masalalariga e'tibor qaratdi. Turistlar uchun qulayliklarni yaxshilash muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari shu yerda Urgut tumani faollari bilan samimiy muloqot o'tkazdi. Suhbatda hududlardagi o'zgarishlar, aholi turmush tarzi va tinchlik qadri haqida fikr almashildi.

Odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, daromad va farovonlikni oshirish, mahallalarni obod qilish davlat siyosatida ustuvor yo'nalish sifatida belgilanayotgani ta'kidlandi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm, transport va energetika sohalarida yirik loyihalar amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Nuroniylar bu o'zgarishlar aholi hayotida sezilarli natija berayotgani, xalqimiz islohotlarga yuqori baho berayotganini ta'kidladi.

Shuningdek, Prezidentimiz vokzal atrofida aholi farovonligi va hududning iqtisodiy jozibadorligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha loyihalar taqdimoti bilan ham tanishdi. Tadbirkorlar tashabbusi asosida yaqin hududlarda avtovokzal, choyxona, ekobozor, turarjoy binolari, xususiy maktab va bog'chalar barpo etish rejalashtirilmoqda.

Ushbu ishlar amalga oshirilishi natijasida aholiga yangi xizmat turlari yaratiladi, hududning ijtimoiy infratuzilmasi yaxshilanadi, tadbirkorlik muhiti yanada faollashadi. Eng muhimi, 350 nafarga yaqin fuqarolarning doimiy bandligi ta'minlanib, hududning iqtisodiy o'sishiga qo'shimcha turkib beriladi.

Davlatimiz rahbari Urgut tumanidagi "Ferre Group" korxonasining maishiy texnika ishlab chiqarish loyihasi faoliyati bilan tanishdi.

"Urgut" erkin iqtisodiy zonasidagi mazkur korxona keyingi yillarda yurtimizda tadbirkorlik subyektlariga yaratilgan qulay imkoniyat va ishonchli investitsiya muhiti natijasida tashkil etilgan zamonaviy ishlab chiqarish majmuasi sanaladi.

Daslab xorijdan keltirilgan butlovchi buyumlar asosida bir necha turdagi maishiy texnika vositalarini yig'ish bilan faoliyat boshlagan korxona bugunga kelib muzlatkich, gaz plita, kichik pech, changyutkich, dudburon va boshqa uy-ro'zg'or buyumlari, zamonaviy temir eshiklar ishlab chiqarish bo'yicha Markaziy Osiyoda mustahkam o'ringa ega yirik kompaniyaga aylangan.

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O'zbekiston
Respublikasi
Prezidentining
F A R M O N I
**A. M. BOBOYEVNI
SAMARQAND VILOYATI
HOKIMI LAVOZIMIGA
TAYINLASH TO'G'IRISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Adiz Muzafarovich Boboyev** Samarqand viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2025-yil 25-noyabr

KO'NGILGA BORAR YO'LLAR...



Bu dunyoda turfa-turfa
yo'llar ichida sarson,
Goh yiqilib, goho turib
boradir mudom inson.
Qabul aylab hayotning baxt,
dard to'la xatlarini,
Kechar ekan toki umr
go'zal bekatlarini.
Manzil tomon eltuvchi bu
nurti yillar bor bo'lsin,
Ko'ngillardan ko'ngillarga
borar yo'llar bor bo'lsin!

Hamjihatlik ilmin bunda
o'qib borsa uyg'oq qalb,
Bog'lanadir ko'ngillarday
bunda yana Sharq G'arb.
Diydor sabab ruh o'sadir,
shodlik, sevinch jonlanar,
Har yurakda umidlarning
bayrami nishonlanar.
Tinch davronga zeb berguvchi
O'ngu so'llar bor bo'lsin,
Ko'ngillardan ko'ngillarga
borar yo'llar bor bo'lsin!



Ko'rdim oydin oqshomlarda,
sezdim oppoq saharlar,
Yurtim aro ochar chiroq
qishloqlar shaharlar.
Bir nafaslik yo'lga do'ndi
olis masofalar xush,
Axir unda yelib borar
zamonaviy uchqur qush.
Shu qushlarga qanot bergan
ajib yo'llar bor bo'lsin,
Ko'ngillardan ko'ngillarga
borar yo'llar bor bo'lsin!

Ezgulikni bayroq qilib,
yaxshi niyat aylab jo,
Millat kelar, quchoq'ingni
kengroq ochgin, ey dunyo!
Ko'hna tarix nafasidan
olib yana zo'r ilhom,
Istagidir bu yo'llarni
yo'larga qo'shmoq mudom.
Orzularni ushaltirgan
chin sururlar bor bo'lsin,
Ko'ngillardan ko'ngillarga
borar yo'llar bor bo'lsin!

Ajdodlardan an'anadir
unutilmas bu saboq:
Yo'l qurmoq, dil bog'lamoq,
birlashib Vatan bo'lmoq.
Ming e'zozga loyiq axir
shu yo'riqni uqsa kim,
Zahmatkash xalq og'irini
olib olg'a chiqsa kim.
Bu ulkan baxt kinga yordir,
yor g'ururlar bor bo'lsin,
Ko'ngillardan ko'ngillarga
borar yo'llar bor bo'lsin!
Bepoyon kengliklarga
tikildim bugun mag'rur,

Surur

Bir his bag'ishladi qalbm,
ko'ksimga so'nmas hovur.
Yo'llar ketar bunda gulgun
tog'-adird osha yana,
Samarqanddan Toshkent qadar,
Nukusdan to Farg'ona.
Dedim, shu yo'llarga umr
sochgan gullar bor bo'lsin,
Ko'ngillardan ko'ngillarga
borar yo'llar bor bo'lsin!

Qalqib turgan olamda ne
qolgay inson izidan,
Qilgan yaxshi amalidan,
aytgan iliq so'zidan?!

Sharaf erur ortida gar
Ona zamin, el qolsa,
Mehr bilan, shodlik bilan
bog'lagan bir yo'l qolsa.
Shu tilakni anglagan ul
yorug' dillar bor bo'lsin,
Ko'ngillardan ko'ngillarga
borar yo'llar bor bo'lsin!

O'tkir RAHMAT.

Senat qoʻmitasida

ISLOMIY BANK FAOLIYATINI
JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI
YARATILMOQDA

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi majlisida qator qonunlar dastlabki tarzda muhokamadan oʻtkazildi.



Taʼkidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda zamonaviy bank xizmatlarini joriy qilish va xalqaro tajribani inobatga olgan holda bank tizimini taraqqiy ettirish borasida talay ishlar bajarilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish, jumladan, aholi turmush farovonligini oshirish, taʼlim, sogʻliqni saqlash, madaniyat va sportni hamda boshqa sohalarini rivojlantirishga qaratilgan ishlar koʻlami ham tahsinga loyiq.

Muhokamalarda senatorlar

tomonidan moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish, xalqaro islomiy moliya standartlariga muvofiq yangi turdagi bank xizmatlarini joriy etish jarayonida amalga oshirilayotgan tadbirlarning oʻz vaqtida moliyalashtirilishini taʼminlash va qoʻshimcha xarajatlar manbalarini aniqlash zarurati yuzaga kelayotgani aytiladi.

Shu bois “Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Oʻzbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish

toʻgʻrisida”gi qonunda islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya orqali banklar islomiy moliyalashtirish yoʻnalishida xizmatlar koʻrsatishi mumkinligi belgilanmoqda.

Bundan tashqari, “2025-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi Qonunga taʼlim, sogʻliqni saqlash, madaniyat va sportni rivojlantirish, “Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturi doirasidagi tadbirlarni moliyalashtirish hamda boshqa qator tadbirlar uchun qoʻshimcha mablagʻlar ajratilishini nazarda tutuvchi oʻzgartirishlar kiritilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining zaxira jamgʻarmasi hajmi, Davlat byudjetidan davlat maqsadli jamgʻarmalariga ajratiladigan transfertlar miqdorlari ham oʻzgartirilmoqda.

Qoʻmita aʼzolari oʻz chiqishlarida qonunlarning qabul qilinishi mamlakatimizda islomiy bank xizmatlarini bosqichma-bosqich joriy etishga, “yashirin iqtisodiyot” ulushini kamaytirishga hamda Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamgʻarmalari byudjetlari mablagʻlarining maqsadli hamda samarali sarflanishini taʼminlashga xizmat qilishini alohida taʼkidlab oʻtdi.

Muhokama yakunida qoʻmitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Onlayn muloqot

Hamkorlik guruhleri uchrashuvleri
samarali oʻtdi

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Fransiya Respublikasi Senati oʻrtasidagi parlamentlararo hamkorlik boʻyicha guruhlarining onlayn uchrashuvi boʻlib oʻtdi.

Unda ikki davlat oʻrtasidagi parlamentlararo aloqalarini yanada rivojlantirish, ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Taʼkidlanganidek, soʻnggi yillarda Oʻzbekiston – Fransiya hamkorligi strategik sheriklik darajasiga koʻtarildi. Bu yuqori darajadagi tashriflar hamda yirik qoʻshma loyihalar amalga oshirilayotgani bilan izohlanadi. Iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va qator tarmoqlarda oʻzaro aloqalarini rivojlantirish yuzasidan ham fikr almashildi.

Madaniy - gumanitar aloqalarini mustahkamlashga alohida eʼtibor qaratildi.

Xususan, madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish boʻyicha amalga oshirilayotgan qoʻshma tashabbuslar va taʼlim sohasidagi hamkorlikni kengaytirishning muhim ahamiyati qayd etildi.

Fransuz tilini oʻrganishga qiziqish tobora ortib borayotgani, shuningdek, ikki mamlakat oliy oʻquv yurtlari oʻrtasida hamkorlik izchil kengayayotgani taʼkidlandi.

Turistik aloqalarini jonlantirish, qoʻshma turizm forumlari va madaniy tadbirlarni oʻtkazish boʻyicha takliflar bildirildi.

Uchrashuv yakunida parlamentlararo hamkorlik

boʻyicha guruhlar faoliyatini tizimli yoʻlga qoʻyish, har yili kamida bir marta ularning qoʻshma yigʻilishlarini oʻtkazish hamda navbatdagi yigʻilishni Oʻzbekiston Respublikasida tashkil etishga kelishib olindi.

Xuddi shunday formatdagi uchrashuv Oʻzbekiston va Pokiston parlamentlararo hamkorlik guruhleri oʻrtasida ham ilk marotaba boʻlib oʻtdi.

Unda ikki davlat oʻrtasidagi doʻstona aloqalarini yanada mustahkamlash, strategik sheriklikni chuqurlashtirish va oʻzaro hamkorlikni kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Soʻnggi yillarda ikki mamlakat oʻrtasidagi munosabatlarda jadal rivojlanayotgani, oliy va yuqori darajadagi muloqotlar izchil yoʻlga qoʻyilgani taʼkidlandi.

Uchrashuvda ikki mamlakat

xalqlari oʻrtasidagi tarixiy va maʼnaviy umumiylikni inobatga olgan holda madaniy - gumanitar aloqalarini yanada rivojlantirish masalasiga alohida eʼtibor qaratildi.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Ahmad Fargʻoniyning boy ilmiy - maʼrifiy merosini birgalikda oʻrganish, ikki mamlakat diplomatik akademiyalari oʻrtasidagi hamkorlikni faollashtirish, noyob asarlarni tarjima qilish loyihasini amalga oshirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, Toshkent, Islomobod va Lahor shaharlarida madaniy tadbirlarni izchil oʻtkazib borish, Buxoro va Lahor oʻrtasida oʻrnatilgan birodarlik aloqalarini faollashtirishga kelishib olindi.

“Xalq soʻzi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

INSON HUQUQ VA MANFAATLARINING
MUSTAHKAM POYDEVORI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi boʻlib oʻtdi. Unda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga daxldor masalalar, jumladan, bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, isteʼmolchilar huquqlari kafolatlarini taʼminlash, fuqarolarning odil sudlovga boʻlgan ishonchini oshirishga qaratilgan qonun loyihalari atroflicha koʻrib chiqildi. Shuningdek, parlament nazorati faoliyatiga doir masala ham muhokamalar markazida boʻldi.



Ijtimoiy va ekologik masalalar – deputatlik korpusi eʼtiborida

Majlis avvalida dastlab oʻtgan haftada yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi muhim voqeiklarga toʻxtalib oʻtiladi. Xususan, 19-noyabr kuni Prezidentimiz raisligida oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida kambagʻallikni qisqartirish va aholi bandligini taʼminlash borasidagi ishlar natijadorligi atroflicha tahlil qilinib, kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilab olingani qayd etildi.

Keyingi yillarda davlatimiz rahbari eng koʻp eʼtibor qaratayotgan ustuvor yoʻnalishlardan biri, bu – kambagʻallik va ishsizlikni qisqartirish masalasi boʻlayotgani, bundan koʻzlangan asosiy maqsad munosib ish oʻrinlari yaratish, oilalar daromadini oshirish hamda xalqimiz uchun farovon hayot sharoitlarini taʼminlashdan iborat ekani taʼkidlandi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan bu boradagi ishlarni tashkil etishning beshta asosiy yoʻnalishi va ularni roʻyobga chiqarishning aniq mexanizmlari, moliyaviy manbalari va ijro uchun masʼullar belgilab berilgani alohida eʼtibor etilgan holda bu mahallalarda kambagʻallikni qisqartirish va aholi bandligini taʼminlash boʻyicha muhim loyihalarni amalga oshirish imkonini berishi aytiladi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar joylarda yanada keng imkoniyatlar yaratishga, aholini yuqori daromadli mehnat faoliyatiga jalb etish orqali iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashga xizmat qilishi urgʻulandi.

Ushbu masala boʻyicha soʻzga chiqqan siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari kuni kecha oʻtkazilgan fraksiyalarga va Kengash majlislarida videoselektor yigʻilishi natijalari muhokama qilinib, undan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar belgilab olinganini alohida qayd etdi.

Oʻz navbatida, deputatlar ham saylov okruglarida ustuvor maqsad va yoʻnalishlarning mazmun-mohiyatini mahalliy ijro organlariga keng tushuntirishi, bu borada joylarda olib borilayotgan ishlar ustidan taʼsirchan parlament nazoratini amalga oshirishi lozimligi aytiladi.

Majlisda davlatimiz rahbarining 24-noyabrdagi “Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash boʻyicha kechiktirib boʻlmaydigan chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmonining mazmun-mohiyati haqida soʻz yuritilib, unda koʻzda tutilgan asosiy chora-tadbirlarga eʼtibor qaratildi.

Taʼkidlanganidek, mamlakatimizda ekologik barqarorlikni taʼminlash, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Farmon bilan Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan kechiktirib boʻlmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish boʻyicha maxsus komissiya tuzilgani va uning zimmasiga qator muhim vazifalar yuklangani diqqat markazida boʻldi. Avvalo, chang koʻtarilgan kunlarda sanoat korxonalari, transport, issiqlik taʼminoti va boshqa sohalarida vaqtinchalik cheklavlar joriy qilinishi nazarda tutilayotgani aholi salomatligini muhofaza qilishda muhim oʻrin tutadi.

Muhokamalarda qator aniqlashtiruvchi

Majlisda ushbu Farmon Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan qatʼiy chora-tadbirlarni belgilash barobarida barcha masʼullar, jumladan, Ekologik partiya fraksiyasi, ekofaollarning ekologik barqarorlikni taʼminlashdagi faolligini yanada kuchaytirishi qayd etildi. Deputatlarning aholi bilan uchrashuvlarida mavjud ekologik holat, uning aholi salomatligiga taʼsiri va profilaktika qilish usullari boʻyicha tushuntirish ishlarni samarali tashkil etishga oid masalalar ham muhokamalar markazida boʻlib, bu boʻyicha zarur chora-tadbirlar belgilab olindi.

Endi xaridor oʻzgartirilgan yoki
almashtirilgan odometr haqida
maʼlumotga ega boʻladi

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan – “Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga qoʻshimchalar va oʻzgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasi birinchi oʻqishda konseptual jihatdan koʻrib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga qator qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilmoqda. Xususan, avtotransport vositasining bosib oʻtgan masofasini koʻrsatuvchi odometr uskunasi koʻrsatkichlari oʻzgartirilganligi yoki odometr uskunasi almashtirilganligi haqida avtotransport vositasini realizatsiya qilishdan oldin xaridorni xabardor etmagandagi uchun javobgarlik choralarini belgilanmoqda.

Shuningdek, voyaga yetmaganlar ishtirokidagi maʼmuriy huquqbuzarlik boʻyicha ishlarni koʻrishda pedagog yoki psixologning ishtirok etishi talabi nazarda tutilmoqda. Maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi ishlarni koʻrib chiqish jarayonida voyaga yetmaganlar bilan bogʻliq holatlarda pedagog va (yoki) psixolog ishtirokini taʼminlash maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi ishlarni koʻrib chiqishga vakolati boʻlgan organlar (mansabdor shaxslar) zimmasida boʻladi.

Bundan tashqari, maʼmuriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs, jabrlanuvchi, advokat va qonuniy vakilga sudya yoki mansabdor shaxsning ishtirokini rad qilish huquqi, maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishni yuritishda ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar belgilanmoqda.

Qonun loyihasida maxsus huquqdan mahrum etish jazosi bir yarim yilgacha muddatga tayinlangan boʻlsa, maxsus huquqdan mahrum qilish muddatini qisqartirish toʻgʻrisida iltimosnoma kiritish imkoniyati jazo muddatining yarmi oʻtgach, bir yarim yildan uch yilgacha muddatga tayinlangan boʻlsa, uchdan ikki qismi oʻtgach taqdim etilishi oʻz aksini topmoqda. Shu bilan birga, maxsus huquqdan mahrum qilish muddatini qisqartirish toʻgʻrisida iltimosnoma kiritish huquqiga ega boʻlmagan shaxslar toifasi koʻzda tutilmoqda.

Mazkur qonun loyihasi isteʼmolchilar huquqlarining kafolatlarini taʼminlash, voyaga yetmaganlarning huquqlarini toʻliq himoya qilish, sud ishlarni koʻrishda ularni ruhiy va psixologik jihatdan qoʻllab-quvvatlash, fuqarolarning odil sudlovga boʻlgan ishonchini oshirishga qaratilgan.

Muhokamalarda qator aniqlashtiruvchi

savollar, taklif va fikr-mulohazalar bildirildi. Xususan, “**Adolat**” SDP fraksiyasi aʼzosi Dilmurod Ismoilov qonun loyihasi konsepsiyasini maʼqullagan holda hujjatni ikkinchi oʻqishga tayyorlash jarayonida ayrim muhim masalalarga eʼtibor qaratish zarurligini bildirdi.

Deputatning qayd etishicha, avvalo, odometr koʻrsatkichini soxtalashtirganlik uchun javobgarlikni qoʻllash mexanizmini aniq belgilab olish lozim. Yaʼni bu huquqbuzarlikni qaysi vakolatli organ rasmiylashtiradi va kelgusida davlat nazoratini qaysi idora amalga oshiradi – shu masala aniq huquqiy yechimni talab qiladi. Ikkinchidan, avtotransport vositalari faqat ikkilamchi bozorda emas, balki sud qarorlari yoki hukmlariga asosan auktsion savdolari orqali ham sotiladi. Bu jarayonlarda ham odometr koʻrsatkichining oʻzgartirilishi mumkinligi inobatga olinib, huquqbuzarlik subyektni aniqlashda muammolar yuzaga kelmasligi uchun qoʻshimcha tartiblar ishlab chiqilishi zarur. Uchinchi masala esa isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish bilan chambarchas bogʻliq. Avtomashina sotib oluvchi shaxs isteʼmolchi hisoblanadi va bu munosabatlar fuqarolik-huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Shu bois tovar sifati, qaytarish yoki yetkazilgan moddiy zararni qoplash kabi masalalarni qonun loyihasida aniq ifodalash maqsadga muvofiq.

“**Milliy tiklanish**” demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari Alisher Qodirov bugun Oʻzbekistonda avtomobilsozlik jadal rivojlanayotganini eʼtirof qilgan holda ayrim shaxslar mashina oldi-sotdisini kasbga aylantirganini aytib oʻtdi. Bu sohadaqi fribgarliklarni bartaraf etish muhimligini urgʻuladi. Jumladan, mashinaning odometr uskunasi koʻrsatkichlari oʻzgartirilib, avtotransport “yoshi”ning kichik qilib koʻrsatilayotganidan aholi vakillari jabr chekayotganini taʼkidladi. Shu bois ushbu qonun loyihasi isteʼmolchi huquqlarini taʼminlashga qaratilgan xalqchil qonun boʻlishini qayd etdi.

“**Adolat**” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari Robaxon Mahmudova qonun loyihasi kuni kecha fraksiya yigʻilishida oʻrganib chiqilgani, koʻrib chiqish jarayonida barcha savolga javob olingani, deputatlar tomonidan bildirilgan takliflarning inobatga olinishi ushbu hujjatni yanada takomillashtirishga xizmat qilishini taʼkidladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Millatlararo munosabatlarda
va xorijdagi vatandoshlar
masalalari boʻyicha qoʻmitaning
axboroti eshitiyladi

Keyingi yillarda mamlakatimizda umummilliy totuvlik, birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash, barcha fuqarolarga teng huquq va imkoniyatlar yaratish, koʻp millatli xalqimizning jonajon Oʻzbekistonimiz farovonligiga daxldorligini kuchaytirish borasida keng islohotlar amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiyamizning 4-moddasida Oʻzbekiston oʻz hududida yashovchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va anʼanalari hurmat qilinishini taʼminlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi mustahkamlab qoʻyilgan.

Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona oila boʻlib, yagona xalq boʻlib umummilliy totuvlik asosida ahil-olov yashab kelayotgani ushbu konstitutsiyaviy qoidaning amaldagi ifodasini namoyon etmoqda.

Joriy yilda sohada olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan Prezidentimizning 1 ta qarori, 1 ta Farmoni qabul qilindi. Jumladan, 2025-yil 19-martdagi qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlarda va xorijdagi vatandoshlar masalalari boʻyicha qoʻmitasiga umummilliy totuvlikni va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarini mustahkamlash boʻyicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish vazifasi yuklatilgan.

Majlisda shundan kelib chiqib, ushbu masala yuzasidan Millatlararo munosabatlarda va xorijdagi vatandoshlar masalalari boʻyicha qoʻmita raisining axborotini eshitishtirish haqida tegishli qaror qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

Joriy yil yakuniga qadar Qishloq xoʻjaligi sugʻurtasi axborot tizimi ishga tushiriladi.

NAMANGANDA
NIMA GAPLAR?ORZULAR RO'YOBGA
CHIQUYOTGAN SHAHARCHA

Viloyat markaziga yo'ldosh Yangi Namangan shaharchasi "Bir millionlik shahar" deya e'tirof etilayotgan Namangan uchun juda muhim obyekt hisoblanadi: yaqin kelajakda ushbu shaharcha 200 mingdan ziyod aholini o'z bag'riga oladi.



Uning qurilishida nafaqat yurtimiz bunyodkorlari, balki dunyo miqyosida katta tajribaga ega xorijiy hamkorlar ham faol qatnashmoqda. Endilikda yana bir yirik loyiha qo'shildi. "China House" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 30 mln. AQSH dollari hajmidagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya hisobidan 2 gektar maydonda jami 16 ta ko'p qavatli turarjoy binosidan iborat majmua barpo etiladi.

Mazkur loyiha taqdimotiga bag'ishlangan marosimda "China House" vakillari yangi majmua haqida batafsil ma'lumot berdi. Ta'kidlanishicha, barpo etiladigan 8 ta 12 qavatli, 8 ta 9 qavatli uylarda umumiy hisobda 1208 ta xonadon joylashadi. Shuningdek, bu yerda savdo va maishiy xizmat majmuasi, xizmat ko'rsatish komplekslari, yopiq suv havzasi, sog'lomlashtirish va dam olish maskanlari qurilishi rejalashtirilgan.

Joriy yilda Yangi Namangan shaharchasida 1 272 xonadonli 17 ta ko'p qavatli turarjoy binosini barpo etish maqsad qilingan bo'lib, hozirga qadar ularning 10 tasi bitkazildi va 911 oilaga zamonaviy xonadonlar taqdim etildi.

TUXUMDAN KELAYOTGAN
TUSHUM

Yangi Namangan tumanidagi Furqat mahallasida yashovchi Zokir Vohidov bir necha yil avval yurak xastaligiga uchragan edi. Yagona boquvchisi ishsiz qolgan oila o'tkazilgan xatlov orqali ijtimoiy reestrga kiritiladi. Bemorning o'zi esa "mahalla yetiligi" ko'magida ko'rsatilgan tibbiy amaliyotdan so'ng sog'lom hayotga qaytadi. Buyog'iga bo'sh yurishni o'ziga ep ko'r magan Z. Vohidov mahalladagi hokim yordamchisi bilan maslahatlashib, 10 million so'm imtiyozli kredit oladi va kichik xo'jaligini yo'lga qo'yadi.

– Parrandachilik yetti xazinaning biri deyishardi, shu gapning rostligiga endi ishondim. Tovuv boqa boshlaganimdan beri oilamizga daromad, xonadonimizga baraka kirdi, – deydi u mamnuniyat bilan. – Bugun tovuqlar soni 700 boshga yetdi. Ular tuxumidan xonadonimizga kuniga 300 ming so'mga yaqin foyda kiritib kelyapti.

O'zini o'zi band qilgan Z. Vohidov topish-tutishga barqaror manba yaratga olgani sharofati bilan uning oilasi kambag'allik ro'yxatidan chiqarildi. Endilikda u kichik fermasidagi parrandalar sonini ikki mingga ko'paytirib, daromadini yanada oshirish harakatida.

O'QUVCHILARNING
INNOVATSION LOYIHASI

Uchqo'rg'on tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning texnologiyalarga qiziqishi yuqori bo'lgan o'quvchilari – Nafisa Dilmurodova hamda Muazzam Nabijonova tomonidan atrof-muhit ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish va favqulodda holatlar yuzaga kelishi ehtimoli haqida oldindan ogohlantirishga mo'ljallangan "Clima Sense" nomli avtomatlashtirilgan qurilma yaratildi.



Moslama tarkibiga o'rnatilgan sensorlar harorat, namlik, shamol kuchi hamda boshqa meteorologik ko'rsatkichlarni aniqlik bilan o'lchab boradi. Olingan ma'lumotlar "Arduino" yoki "ESP32" mikronazorat uskunalar orqali qayta ishlanadi. Agar ko'rsatkichlar oldindan belgilangan me'yorlardan chetga chiqsa, tizim avtomatik tarzda displeyda ogohlantiruvchi ma'lumotni yuqoridagi hamda buzur orqali ovozi signal beradi. Shuningdek, qurilmaga ulangan SMS-modul yordamida foydalanuvchiga masofaviy xabaroma yuborish imkoniyati yaratilgan.

Innovatsion tizimning amaliy ahamiyati yuqori bo'lib, meteorologik o'zgarishlarni erta aniqlash orqali tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish, ekinlar uchun optimal mikroiklim yaratish, issiqxonalarda energiya samaradorligini oshirish hamda aholi xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashadi.

Qudratilla NAJMIDDINOV
("Xalq so'zi").

TOSHKENT HAVOSINI YAXSHILASH YO'LIDA
JIDDIY QADAM

Prezidentimiz tomonidan kuni kecha "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon imzolandi.

Ushbu hujjat xalqimiz, ayniqsa, poytaxt ahliga katta quvonch bag'ishlashi barobarida, ertangi kunga ishonch va umidni yanada kuchaytirdi. Negaki, unda mamlakatimiz bosh kentining ekologiyasini yaxshilash, havosi musaffoligini ta'minlash bo'yicha eng muhim vazifalar belgilab berildi.

Quvonarli tomoni shundaki, Farmonda ko'rsatilgan vazifalar ijrosiga u e'lon qilingan ondayoq kirishildi. Natijada Toshkent havosida o'zgarishlar kuzatila boshlandi.

Bugunning gapi

– Xayriyat, Toshkent havosi bugun bir oz yaxshilandi, – deydi toshkentlik bog'bon Mirzaahmad Rizayev. – Chang va g'uborlar sekin-asta ko'tarilib, yengil nafas ola boshladik. Buni men Prezident tashabbusi bilan poytaxt ekologiyasini yaxshilash bo'yicha boshlangan amaliy chora-tadbirlar samarasi, deb bilaman.

Darhaqiqat, o'tgan haftada boshlangan poytaxt havosining yuqori darajada ifloslanish holati uzoq muddat saqlanib turishi bilan odamlarni qiyinab qo'ydi. "Gidrometeorologiya" xizmati agentligi buni harorat inversiyasi, ya'ni sovuq havo ustida iliq havo muallaq bo'lib, havo qatlamlarining aralashib ketishiga yo'l qo'ymasligi, yer yaqinida zararli moddalarning to'planishiga sabab bo'lishi bilan izohladi. Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi esa tez-tez takrorlanayotgan bu muammo ham tabiiy, ham antropogen omillar ta'sirida yuzaga kelganini ma'lum qildi.

Shu paytgacha muammoning asosiy sabablari bot-bot aytilsada, uning yechimi sari jiddiy say-harakatlar amalda sezilmayotgan edi. Ana shunday bir paytda davlatimiz rahbarining Farmoni e'lon qilinishi aholining ayni dilidagi gap bo'ldi. Axir, unda havoning ifloslanishiga sabab bo'layotgan barcha omilni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar aks etgan.

Kechiktirib bo'lmaydigan
chora-tadbirlar

Endilikda Toshkent shahrida atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish maqsadida ekologik nazorat yanada kuchaytiriladi. Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish uchun kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'riladi. Bu borada Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasiga 2026-yil 1-martga qadar muhim vazifalar yuklatildi.

Eng asosiysi, Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha maxsus komissiya tuzilib, unga ko'plab vakolatlar berildi. Avval qabul qilingan tegishli Farmon, qaror va topshiriqlar ijrosini ta'minlash vazifasi ham uning zimmasiga yuklatildi.

Xo'sh, maxsus komissiya o'z vakolati doirasida qanday ishlarni amalga oshiradi?

Maxsus komissiya rasmiy manbasidan olingan ma'lumotlarga qaraganda, u qurilish ishlarini amalga oshirishga cheklov va talablar joriy qilish, tabiiy changlanish kuchaygan paytda sanoat korxonalari, transport, issiqlik ta'minoti va boshqa sohalarda cheklovlarni o'rnatish vakolatiga ega.

Shu bilan birga, maxsus komissiya sanoat va ishlab chiqarish korxonalarini filtrlar bilan jihozlash hamda "AI-80" markali benzindan voz kechish bilan bog'liq chora-tadbirlar ijrosi nazoratini olib boradi. U tomonidan qabul qilingan qaror va ko'rsatmalar barcha davlat idoralari va tashkilotlari, huquqni muhofaza etuvchi va nazorat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

Aytish joizki, maxsus komissiya Toshkent shahridagi ekologik vaziyatni doimiy tahlil va monitoringdan o'tkazish asnosida uning yomonlashish tendensiyalarini prognoz qiladi. Ekovaziyat murakkablashgan hollarda uni yaxshilashga qaratilgan kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rish bo'yicha takliflar tayyorlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritish vakolati berildi.

Suv havzalari va favvoralar
ko'payadi

Iqlimshunoslarning fikricha, shahar havosini ifloslantiruvchi asosiy manbalardan biriga aylangan qurilish ishlari endi tartibga olinadi. Sababi, qurilish maydonlari nazorati kuchaytiriladi. Bir hafta ichida 500 m² va undan katta maydonlarda kompleks tekshiruvlar o'tkazilib, maydonlarning kamida 25 foizi ko'kalamzorlashtirilgani, suv purkagichlar o'rnatilgani, kirish-chiqish yo'llarida avtotransport g'ildiraklari yuviladigan havzalar mavjudligi va materiallar brezent yoki PVX qoplama bilan yopilgan holda tashilayotgani tekshiriladi. Chang va qumning havoga ko'tarilishiga yo'l qo'ymaslik talablari qat'iy kuzatuv ostiga olinadi.

Endilikda katta qurilish maydonlarida monitoring stansiyalari majburiy bo'ladi. Maydoni 1 000 m²dan ortiq obyektlarda monitoring uskunalarini o'rnatish va qo'mita tizimiga ulash qurilishni davom ettirishning asosiy sharti etib belgilandi. Shuningdek, yo'l bo'ylarida daraxt

va butalarni muntazam yuvish, ko'p kvartirali uylarda sug'orish uchun rezervuarlar o'rnatish choralari ko'riladi.

Poytaxtda mikroiklim barqarorligini ta'minlash bo'yicha yirik loyihalar boshlanadi. Uch oy muddatda shaharning to'rt yo'nalishi bo'ylab kamida uchtdan sun'iy ko'l va suv havzasi barpo etiladi. Bundan tashqari, ikki hafta ichida Toshkentdagi favvoralar sonini kamida ikki baravarga ko'paytirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqiladi.

Issiqxonalarda reydlar
o'tkazilmoqda

Tahillarga qaraganda, kuz-qish mavsumida shahar havosi ifloslanishida issiqxonalarning salbiy ta'siri katta bo'lmoqda. Chunki ayrim tadbirkorlar isitishda zararli moddalardan foydalanish hollari

holda, bir haftada issiqxonalarni tabiiy gaz bilan ta'minlash bo'yicha shartnomalar tuziladi.

Doimiy onlayn nazorat

Hujjat ijrosi doirasida poytaxtda havo ifloslanishini kamaytirish uchun havo sifati monitoringi yaxshilanadi. Buning uchun "Air Monitoring Uzbekistan" platformasiga gidrometeorologik xizmat tizimidagi barcha kuzatuv stansiyalarini, jumladan, yangi o'rnatiladigan avtomatik postlarni ulash rejalashtirilgan.

Farmonga muvofiq, atmosfera havosining PM2.5 kabi mayda zarrachalar bilan ifloslanish manbalarini aniqlashga ixtisoslashtirilgan maxsus laboratoriya tashkil etiladi. U kosmik tasvirlar, zamonaviy o'lchov uskunalar va modellashdirdir texnologiyalari asosida tahlillar olib

■ Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha maxsus komissiya tuzilib, unga ko'plab vakolatlar berildi.

■ Maxsus komissiya tomonidan qabul qilingan qaror va ko'rsatmalar barcha davlat idoralari va tashkilotlari, huquqni muhofaza etuvchi va nazorat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

■ Maydoni 1 000 m²dan ortiq qurilish obyektlarida monitoring uskunalarini o'rnatish qurilishni davom ettirishning asosiy sharti etib belgilandi.

■ Toshkent shahrining to'rt yo'nalishi bo'ylab kamida uchtdan sun'iy ko'l va suv havzasi barpo etiladi, favvoralar soni ikki baravarga ko'paytiriladi.

■ 2025-yil oxirigacha atmosfera nazoratini to'liq modernizatsiyalash tadbirlari doirasida 347 ta avtomatlashtirilgan stansiya xarid qilinadi.

ko'plab uchramoqda. Shuning uchun issiqxonalar bo'yicha nazorat ham keskin kuchaytiriladi.

Maxsus komissiyadan ma'lum qilinishicha, ayni paytda Toshkent shahri va Toshkent viloyati atrofida joylashgan issiqxonalarning isitish tizimlarini ko'zdan kechirish maqsadida reydtadbirlari o'tkazilmoqda. Unga tegishli tashkilotlar xodimlari ham jalb etilgan. Bundan ko'zlangan maqsad noqonuniy pechlar, yoqilg'i sifatida ishlayotgan avtoshinalar, filtersiz mo'nilar va boshqa zararli moddalar chiqaruvchi yoqilg'ilarga qarshi kurashishdir.

Shu o'rinda aytish joizki, 200 m²dan ortiq issiqxonalarda chang tarqatish va ekologik talablarni buzish bilan bog'liq qonunbuzilishlar uchun jarimalar oshiriladi, yoqilg'i yoqilishi holatlarida esa obyektlarni davlat foydasiga musodara qilishni nazarda tutuvchi jinoyi javobgarlik tartibi joriy etiladi.

Energetika vazirligi mas'ullarining aytishicha, Farmonda belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan

boradi, qabul qilinayotgan ekologik qarorlarni ilmiy jihatdan asoslashda muhim o'rin tutadi.

Umuman olganda, 2025-yil oxirigacha atmosfera nazorati to'liq modernizatsiya qilinadi. 347 ta avtomatlashtirilgan stansiya xaridi amalga oshirilib, "Air Monitoring Tashkent" tizimi qo'mita boshqaruvi o'tkaziladi va umummilliy "Air Monitoring Uzbekistan" platformasiga integratsiya qilinadi. Gidrometeorologiya xizmati stansiyalari va "Zamin" fondi o'rnatgan postlar ham yagona monitoring tizimiga ulanadi.

Havo tozalagichlar bojdani
ozod

Yana bir yangilik. Tadbirkorlik subyektlari va fuqarolar ichki bozorda talab ortib borayotgan maishiy havo tozalash uskunalarini yurtimizga olib kirishda bojxona bojdani ozod etiladi.

– Prezidentimiz Farmoni bilan bu turdagi tovarlar uchun import bojining bekor qilinayotgani

Said RAHMON
("Xalq so'zi").

2030-yilgacha Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida milliy arxitektura uslubiga asoslangan
zamonaviy outlet markazlari tashkil etiladi.

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1142. 10 552 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqabo. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Muharrir Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6